



e-ISSN:2582-7219



INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH IN SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY

Volume 6, Issue 1, January 2023



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INDIA

Impact Factor: 7.54



6381 907 438



6381 907 438



ijmrset@gmail.com



www.ijmrset.com



Forming Elementary Mathematical and Computer Skills of Pre-School Children through Digital Technologies

Dushabayeva Makhliyo Asrorovna, Mahmudova Sabina Anvarqizi

Student of the 22/2 group of the Faculty of Preschool Education, Chirchik State Pedagogical University
Republic of Uzbekistan

Student of the Faculty of Computer Engineering, Group 615-21, Fargona branch of Tashkent University of
Information Technologies, Republic of Uzbekistan

ABSTRACT: The relevance of using information and communication technologies, improving the quality of education, social needs of preschool education, practical needs of using modern computer programs in preschool education. By using multimedia technologies, children aged 5-7 years old will be able to expand their intellectual initiative, independent research and scope of logical thinking through the development of basic elementary mathematical concepts.

KEYWORDS: social need, computer programs, multimedia technologies, intellectual initiative, logical thinking.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ELEMENTAR MATEMATIK VA KOMPYUTER KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Dushaboyeva Maxliyo Asrorovna

Maktabgacha talim fakulteti 22/2 guruh talabasi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbekiston Respublikasi

Maxmudova Sabina Anvar qizi

Kompyuter injineriing fakulteti 615-21gurux talabasi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Fargona filiali
O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi, talim sifatini oshirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning ijtimoiy ehtiyojlari, maktabgacha talimda zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanishning amaliy ehtiyojlari. Multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda 5-7 yoshdagi bolalarda boshlang'ich elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish orqali ularning intellektual tashabbusi, mustaqil izlanishi va mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirishga erishish.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ehtiyoj, kompyuter dasturlari, multimedia texnologiyalari, intellektual tashabbus, mantiqiy fikrlash.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bizning hayotimizga va talim tizimiga, shu jumladan maktabgacha talim tizimiga faol kirib bormoqda. Maktabgacha talim tizimini qayta qurishning asosiy yo'nalishlaridan biri bolaning xususiyatlari, imkoniyatlarini, layoqati va qobiliyatlarini etiborga olgan holda uni shaxs sifatida mukammal rivojlantirishga qaratilgan talimdir. Shuning uchun bizning asosiy vazifamiz maktabgacha yoshdagi bolalarni bilimga



undash, faollikka chaqirish, amaliy faoliyatning har bir turida matematik tushunchalarning muhimligini ko'rsatish, mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iborat.

Matematik tushunchalarni rivojlantirish muammosi psixologik nuqtai nazardan quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

- 1) tushunchaning tuzilishi va shaklning paydo bo'lishi;
- 2) tushunchalarni shakllantirish uchun aqliy harakatlar va aqliy faoliyat yo'llarini, usullarini rivojlantirish.

Bu muammoga, birinchidan, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, O.K.Tixomirov va boshqalarning ishlari bag'ishlangan. Ikkinchidan, P.Ya.Galpenin, Ya.I.Grudenov, Z.I.Kalmikov, Yu.M.Kolgagin, V.A.Kruteskiy, A.M.Matyushkin, Z.I.Slekan, N.F.Talizina, L.M.Fridman va boshqalar o'z ishlarida o'rganganlar.

Psixologik, pedagogik tadqiqotlarni ko'rib chiqib shunday xulosaga kelish mumkinki, bolalar matematik tushunchalarini shakllantirish tarbiyachi (pedagog) rahbarligida, maqsadli tashkil etilgan faoliyat jarayonida samarali rivojlanadi.

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi esa bolalar matematik tushunchalarini shakllantirish nafaqat tarbiyachi (pedagog) rahbarligida, balki bolaning mustaqil bilim olishi uchun ham xizmat qiladi. Hozirgi davrimiz kichkintoylari kompyuter dasturlari va mobil telefonlar funksiyalarini juda tez o'zlashtirib olmoqdalar, biz ularning bu ehtiyojlarini samarali qondirish maqsadida, bolaning yoshiga mos talimiy kompyuter o'yinlari, elektron ensiklopedialar, multfilmlar, o'quv video filmlari va dasturlari, saytlar, elektron patformalar, va boshqalarni yaratishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda respublikamizning jadal rivojlanayotgan soxalaridan biri maktabgacha talim tizimining rivojlantirishga qaratilgan bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini

mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955 sonli qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595 sonli qonuni qabul qilindi.

Yuqoridagi talablarni inobatga olgan holda hozirgi kunda barcha maktabgacha talim tashkilotlari maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va rivojlantirish maqsadida yuqori texnologiyali axborot vositalari (noutbuk, proektor, televizor, videokamera, sensorli interfaol doskalar va boshqalar) bilan taminlanmoqda.

Mazkur tadqiqot davomida "Maktabgacha ta'limda matematika mashg'ulotini o'qitishga mo'ljallangan amaliy dastur"ni yaratdim va mualliflik huquqiga ega bo'lib, uni mahalliy maktabgacha talim muassasalariga tajriba uchun taqdim etdim. Dasturda elementar matematik tushunchalarni tanishtirishga oid o'zbek tilida yaratilgan o'quv video filmlar, mustahkamlovchi rivojlantiruvchi kompyuter o'yinlari va tarbiyachilar uchun elektron metodik-uslubiy qo'llanmalar joylashtirilgan. Dastur tarbiyachilar va bolalarda katta qiziqish uyg'otdi. Hozirgi kunda natijalar o'rganilmoqda.

Tadqiqot izlanishlariga tayanib maktabgacha ta'lim muassasasining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi talablari asosiga har bir yosh guruhlariga muljallangan "Matematikaga ilk qadamlar" nomli elektron o'quv dastur yaratyapman. Dasturda geometrik shakllar, son-sanoq tushunchalari, fazoda mo'ljal olish, vaqt va miqdor tushunchalari haqida tanishtiruvchi animatsion roliklar va bir qancha topshiriqlar bshlimlari mavjud. Ushbu dastur orqali bolalar mustaqil bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar, qolaversa tarbiyachilar uchun elektron qo'llanmadir. O'ylaymanki ushbu dasturlar maktabgacha talim tizimimizning elektron bazasini boyitishga xizmat qiladi.

Bolalar bog'chasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotlar nafaqat buning imkoni va maqsadga muvofiqligini, balki bolaning intellektini va umumiy shaxsini rivojlantirishda alohida rol o'ynashini ishonchli isbotlaydi (S.Novoselova, G.Petku, I.Pashelite, S.Peypert, B.Xunter va boshqalar.).

Ma'lumki, matematika fanini o'qitishda ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Ta'kidlash joizki, yangi pedagogik texnologiya ta'limning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan shakli, usuli va vositalarining mahsulidir. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki,



aksariyat hollarda o'qituvchi dars jarayonida faqat o'zi ishlaydi, o'quvchilar esa kuzatuvchi bo'lib qolaveradilar. Ta'limning bunday ko'rinishi o'quvchilarning aqliy tafakkurini o'stirmaydi, faolligini oshirmaydi, ta'lim jarayonidagi ijodiy faoliyatni so'ndiradi.

Ta'limda pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi o'qitish tizimida o'quvchini dars jarayonining markaziga olib kelish, o'quvchilarni o'quv materialini shunchaki yod olishlaridan, avtomatik tarzda takrorlashlaridan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Shundagina o'quvchilar muhim hayotiy yutuq va muammolar, o'tiladigan mavzularning amaliyotga tatbiqi bo'yicha o'z fikriga ega bo'ladi, o'z nuqtai nazarini asoslab bera oladi. Matematika fanini o'qitishda o'qituvchi interfaol metodlardan mavzuga muvofiqini tanlay bilishi muhim hisoblanadi. O'qituvchi interfaol metodlardan avvalo oddiydan murakkabga o'tish nazariyasiga amal qilgan holda foydalanmog'i lozim. Ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda bilimlarni yaxlit o'zlashtirilishiga yordam beradi. [11-17] maqolalarda umumta'lim maktablarida va oliy ta'lim muassasalarida Matematika fanini o'qitishda qo'llaniladigan interfaol metodlar keng yoritilgan. Bu metodlarning yutuq va kamchiliklari sanab o'tilgan. Metodlarni qo'llash bo'yicha namunalar berilgan. Kelgusida umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalari talabalari bo'ladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining maktabgacha yoshda egallagan bilim va ko'nikmalaridan ham uzviy bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tizimida elektron resurslardan foydalanish quyidagi ijobiy natijalarga sabab bo'ladi:

1. Multimedia taqdimotlari maktabgacha yoshdagi bolalarni uchun tushunarli bo'lgan majoziy malumot turiga ega bo'lganligi sababli, bolalar o'rganilayotgan materialni yaxshiroq o'zlashtiradilar va mustaqil ravishda o'z bilimlarini oshiradilar.

2. Kompyuter va multimedia effektlarining jozibadorligi tufayli bolada o'qish uchun motivatsiya va matematikaga qiziqish kuchayadi.

3. Bolalarda olingan bilim uzoq vaqt davomida xotirada qoladi va ularni amaliy qo'llash uchun tiklash osonroq bo'ladi.

Tarbiyachining ko'pqirrali va murakkab faoliyat zaminida e'lon avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar etadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: bolalarni o'qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishdarni tashkil eta bilish va o'tkazish, ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarini olib borish va hokazo. Bularning hammasi o'qituvchidan chuqur bilimlarga ega bo'lishni, o'z sohasini, bolalarni sevishtirishni talab etadi.

Ma'lumki, hozirgi davrda aqlan zukko, kreativ qobiliyatli, izlanuvchan e'shdar jamiyatni ilmiy texnik taraqqiётini harakatga keltiruvchi ulkan kuch-quvvat manbai bo'lib, ular kelajakda barcha sohalarda jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi lozim bo'ladi. Shu nuqtai nazardan e'sh iqtidorli mutaxassislarini izlab topish, ularni to'g'ri yo'naltirish oliy maqsadlardan biridir.

Bizga ma'lumki hozirda jamiyatimizning barcha moddiy va ma'naviy sohalarida o'zgarishlar ro'y berib, insonlar aniq maqsadlar sari intilmoqda va o'zlari uchun muhim iqtisodiy, ma'naviy shart-sharoitlarni yaratib, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun xizmat qilmoqdalar. Demokratik jamiyat qurishning dolzarb muammolaridan biri - inson tafakkuri va ma'naviyatini o'zgartirishdir. Yangicha tafakkurning paydo bo'lishi, insonning bugungi taraqqiётdagi o'rni va rolini anglash jamiyatning demokratik tamoyillarga asoslanib rivojlanishining muhim omiliga aylandi. Har bir davlatning asosiy boyligi - bu inson. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, davlatning boyligi va qudratini oshirishning asosiy yo'li - e'shlarda intellektual madaniyatni shakllantirishdir.

Insonning intellektual madaniyati asosan uning yashash tarzi, mustaqil fikrga egaligi, ish faoliyati bilan belgilanadi. Shuning uchun ham insonni intellektual madaniyati nafaqat uni jismoniy va ma'naviy fazilatlarini, balki uning moddiy farovonligi bilan ham bog'liqdir. Inson o'zining intellektual madaniyati orqali voqelikni qay darajada aks ettirishi va u to'g'risida fikr mulohazalarini chuqurlashtirish asosida tobora o'z-o'zini chuqurroq, aniqroq kashf etib boradi. Ya'ni, insonni - intellektual potentsiali birinchi navbatda uning o'zligini anglashga qaratilgan bo'ladi.

Ma'lumki, mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha sohalardagi keng ko'lamlil islohotlar xalq bilan muloqot prinsipiga uyg'un va hamohanglikda amalga oshirilayapti. Ta'lim tizimidagi strategik o'zgarishlar ham bunga e'rqin misol bo'la oladi.

Binobarin, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish, sohaga davlat-xususiy sherikchilikning samarali mexanizmlarini joriy etish, bu borada ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish bo'yicha qator yangiliklarga qo'l urildi. Bu



bejiz emas. Sababi yaqin-yaqingacha ham tadbirkorlarga nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish uchun litsenziya berishning markazlashib ketgani eng dolzarb va o'z yechimini kutaetgan muammolardan biri bo'lib kelaetgan edi. Masalan, uzoq hududlarda yashovchi biror ishbilarmon xususiy bog'cha eki maktab ochmoqchi bo'lsa, albatta Toshkentga bir necha bor kelib-ketishiga to'g'ri kelardi. Boz ustiga, litsenziya natijalarini oylab kutardi. Agar litsenziyani qo'lga kirita olmasa, u eg'ini o'zingiz o'ylayvering. Xullas, sarson-sargardonchilik, asabbuzarliklar xo'p va ko'p edi.

Zero, davlatimiz rahbari ham qator chiqishlarida mazkur mazkur masalaga alohida to'xtalib, tanqidiy fikrlar bildirdi hamda tegishli vazirlik va idoralarga aniq topshiriqlar berdi. Bu borada Prezidentimizning 2017 yil 15 sentyabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim dasturilamalga aylandi

Yurtboshimiz tomonidan belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan qator ishlar olib borilayapti. Xususan, tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda nodavlat ta'lim xizmatlarni ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish yo'lida fuqarolarning talab va istaklarini inobatga olgan holda qaror loyihasi tayèrlandi.

Uni ishlab chiqish jaraenida ilg'or xalqaro tajribalar chuqur o'rganildi. Jumladan, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi delegatsiyasi Koreya Respublikasiga xizmat safari uyushtirdi. Tashrif davomida Janubiy Koreyaning nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi qonun va qonunosti hujjatlari ko'rib chiqildi. Bir qator mutassadi tashkilotlarda uchrashuv va seminarlar tashkil etilib, qaror loyihasi muhokama qilindi, o'rganilgan malakalarning namunali omillari inobatga olindi.

Masalan, Janubiy Koreya maktabgacha ta'lim muassasalarida asosiy e'tibor ta'lim-tarbiya jaraeniga qaratiladi. Ya'ni ushbu davrda olingan ta'lim-tarbiya kelajak uchun pishiq-puxta poydevorga aylanadi, bolalarni ta'lim olishga qiziqtirish bog'chadan boshlanishi zarur degan qat'iy prinsipga rioya etiladi. Pirovardida bugun Koreya Respublikasida ehlarni bog'chada qamrab olish darajasi 98 foizga yetkazilgan. Bu esa shubhasiz keyingi bosqichdagi ta'lim sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur jaraenlardan so'ng Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yil 27 martda "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida" qaror qabul qilindi. Uning haetga tatbiq etilishi bilan nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil qilish jaraeni yanada soddalashtirildi, litsenziya talabgorlarining murojaatlarini qisqa muddatlarda ko'rib chiqish belgilab qo'yildi. Ayni chog'da Davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali litsenziya talabgorlari hujjatlarini qabul qilishning elektron tizimi yo'lga qo'yildi.

Ta'lim jaraenida masalani qo'yishda mavjud shart-sharoitlarni aniqlashda muammo fundamental asos sifatida namoèn bo'ladi.

Samaradorlik tushunchasi, garchi ijtimoiy munosabatlar jaraenida ko'p qo'llanilsada, boshqaruv nazariyasida eng kam ishlangan tushunchalardan biridir. Samaradorlikning umumiy nazariyasi mavjud bo'lmaganligi bois ushbu yo'nalishdagi barcha urinishlar hozircha kutilgan natijaga olib kelmadi. Faoliyatning turli sohalarida samaradorlikning o'z xususiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ammo ta'limda bugungi kunda bunday ko'rsatkichlar yo'q. Shunga qaramay, samaradorlik tushunchasi sifatga yo'naltirishda juda muhim va foydalidir.

Samaradorlik haqida gapirishdan oldin faoliyat unumdorligi tushunchasini kiritamiz. O'ar qanday faoliyat ozmi-ko'pmi unumli bo'ladi. Unumdorlik - bu qandaydir vaqt ichida olingan natijalarning foydaliligi va u bilan bog'liq harajatlar o'rtasidagi nisbatni ko'rsatuvchi faoliyat xususiyati demakdir. Unumdorlikdan ko'pincha boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi. Garchi faoliyat unumdorligi bilan boshqaruv samaradorligi birbiriga bog'liqligi shubhasiz bo'lsada, biroq ular bitta narsa emas. Ta'limning boshqa ta'lim muassasasiga nisbatan yuqoriroq natijalari ushbu ta'lim muassasasida boshqaruv sifati yuqori bo'lishidan har doim ham dalolat beravermaydi. Masalan, ta'lim muassasasi.

Boshqaruv samaradorligi deganda erishilgan va erishish mumkin bo'lgan unumdorlik o'rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi xususiyatni tushunamiz. Bunday ta'rifni faoliyat ko'rsatishni boshqarishga nisbatan ham, rivojlanishni boshqarishga nisbatan ham ishlatga bo'ladi. Lekin bu holatlarning har birida turli natijalar va turli xarajatlar hisobga olinishi kerak. Ta'lim muassasasi o'zi uchun ta'lim sifati iloji boricha yuqori darajada bo'lishini ta'minlay oladi (bu



yuqori samaradorlik hamda faoliyat yuritishni boshqarishdan dalolat berishi mumkin), ammo ayni paytda u yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining salohiyatini kuchaytirish uchun ob'ektiv tarzda ta'limning mavjud imkoniyatlaridan foydalanmasligi mumkin. Bu ta'lim muassasasini rivojlantirishni boshqarish samaradorligi pastligidan dalolat beradi. Ta'lim sifati - bu ta'lim jaraenining jamiyatdagi holati va natijadorligini, uning shaxsning fuqarolik, turmush va kasb sohalaridagi bilimdonligini rivojlantirishdan jamiyat (turli ijtimoiy guruhlar) ehtièjlari va kutgan natijalariga muvofiqligini belgilovchi ijtimoiy 72 kategoriya demakdir. Ta'lim sifati ta'lim oluvchi èshlarning xabardorligini rivojlantirishni ta'minlaydigan ta'lim faoliyatining turli jihatlarini, o'qitish mazmuni, shakllari va metodlarini, moddiy-texnika bazasini, kadrlar tarkibini va h. k. tavsiflovchi ko'rsatkichlar yig'indisi bilan belgilanadi.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalari, shu jumladan maktabgacha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari bilan jihozlanmoqda. Bunda tarbiyachi pedagoglarning o'z mehnati faoliyatiga yangicha èndashuvni, mashg'ulot o'tish jaraenida tarbiyalanuvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularni tushunarli va qiziqarli shaklda tashkil etishda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishlari zaruriyati paydo bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jaraenida yangi kompyuter va axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositalarining joriy etilishi, pedagog-tarbiyachilarning axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, ularning mashg'ulotni tashkil etish jaraenidagi maqsadi, vazifalari va tutgan o'rnini o'zgartiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga ta'lim berishda axborot texnologiyalaridan foydalanish murakkab masala hisoblanib, ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Lekin shunga qaramay, maktabgacha èshdagi bolalarni tarbiyalash va ularning har tomonlama yetuk inson bo'lib rivojlanishida kompyuter texnologiyalari vositalaridan foydalanish o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning badiiy-musiqiy faoliyatini, matnlarni o'qish, rasmlarni ko'rish va ajrata bilish tasavvurlarini kengaytirish kompyuterli o'yin dasturlari orqali fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Maktabgacha èshdagi bolalarning rivojlanishi uchun mo'ljallangan kompyuterli o'yin dasturlarining barchasi ham ta'lim jaraenida o'z samarasini beravermaydi. Shuning uchun ham kompyuter o'yinlarini tanlash va ulardan foydalanish uchun jiddiy èndashuv va e'tibor kerak bo'ladi. Kompyuterli o'yin dasturlari shunday yaratilgan bo'lishi kerakki, unda bajariladigan har bir harakat bolalar tomonidan to'g'ri qabul qilinishi, bajarilishi va tasavvur etilishi lozim. O'yin dasturidagi har bir harakatni bola tushuna olishi, uni qanday bajarish kerakligini o'ylash va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning axborot texnologiyalari bo'yicha boshlang'ich savodxonligini ham oshirish zarur, ya'ni kompyuterning umumiy tuzilishi, asosiy qurilmalari to'g'risida umumiy tushunchalarni, klaviaturadan foydalana olish malakalarini hosil qilish mumkin. Bu ishlar tarbiyalanuvchilarning kompyuter o'yinlaridan foydalana olish bo'yicha malaka va ko'nikmalari shakllanishida asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarishda ham axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanilmokda. Buning uchun esa maktabgacha ta'lim muassasalarida elektron axborot resurslaridan samarali foydalangan holda elektron hujjat almashuvi yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim. Bu faoliyatning samaradorligi tarbiyachipedagoglarning ta'lim-tarbiya jaraeniga shu texnologiyalarni qo'llashga doir bilim, ko'nikma va malakalari darajasi va amaliy ish tajribalariga ham bog'liq bo'ladi. boshqacha aytganda, maktabgacha ta'lim tizimida axborot - kommunikatsion texnologiyalaridan mukammal foydalanish uchun asosiy e'tibor, eng avvalo, talab qilinadigan sharoitni yaratish hamda ta'lim-tarbiya jaraenlarida zamonaviy elektron axborot va uslubiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilishi lozim. Bugun mamlakatimiz istiqbol sharofati tufayli barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va xaetimizga tatbiq etish davri keldi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda «kadrlar tayèrlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ro'èbga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi». Eng muhimi, bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra, o'quv jaraenining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Buning natijasida shahs o'z «men»ini anglay boshlaydi va boyitadi, tashqi dunè bilan bo'lgan aloqasida esa o'zining ijtimoiy rolini topa oladi, yaratuvchilik qobiliyati shakllanadi.



REFERENCES

1. Tolipov O^o., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari -T. 2006.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: —Iste'dodl jamg'armasi, 2009. – 160 b.
3. Xutorskoy A.V. Didakticheskaya evristika. – M.: 2003.
4. Ergashevna, K. M. (2021). Factors for improving the quality of education in primary schools of non-state educational institutions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 792-796.



INNO SPACE
SJIF Scientific Journal Impact Factor
Impact Factor
7.54

ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INDIA



INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH IN SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY

| Mobile No: +91-6381907438 | Whatsapp: +91-6381907438 | ijmrset@gmail.com |

www.ijmrset.com